



---

## THE DEPICTION OF ROMANTIC FEELINGS IN FARIDUN MUSHIRI'S POEM "THE ALLEY"

***Iroda Rahmonaliyeva***

*1st-year Master's student*

*Higher School of Iranian and Afghan Studies*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

***O. Turdiyeva***

*Associate Professor at the Higher School of Iranian and Afghan Studies*

*Tashkent State University of Oriental Studies, Doctor of Philological Sciences*

*Tashkent, Uzbekistan*

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Faridun Mushiri, poetry, "The Alley," retrospection, holistic approach, elements of nature, hyperbolic imagery.

**Received:** 25.03.26

**Accepted:** 26.03.26

**Published:** 27.03.26

**Abstract:** This article analyzes the famous poem "The Alley" by Faridun Mushiri, a representative of modern Persian poetry. The study examines the artistic devices, imagery, and symbolic meanings in the poem, as well as its linguistic and stylistic features. Additionally, the composition, rhythm, and tonal characteristics of the poem are analyzed. The article briefly presents the content, essence, and artistic value of the poem from a literary perspective.

---

## FARIDUN MUSHIRIYNING "KO'CHA" SHE'RIDA ISHQIY KECHINMALAR TASVIRI

***Iroda Rahmonaliyeva***

*1-kurs magistranti*

*Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

***O. Turdiyeva***

*TDSHU, "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabi dotsenti*

*Filologiya fanlari doktori*

*Toshkent, O'zbekiston*

---

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Faridun Mushiriy, sheʼriyat, “Koʻcha”, retrospeksiya, holistik yondashuv, tabiat unsurlari, giperbolik tasvir.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy fors sheʼriyatining vakili Faridun Mushiriyning mashhur “Koʻcha” sheʼri tahlil qilinadi. Tadqiqotda sheʼrdagi badiiy vositalar, obrazlar va ramziy maʼnolar, shuningdek, til va uslub xususiyatlari oʻrganiladi. Shuningdek, sheʼrning kompozitsiyasi, ritm va ohang xususiyatlari ham tahlil qilinadi. Maqola adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan sheʼrning mazmun-mohiyati va badiiy qiymatini qisqacha ifodalaydi.

## ИЗОБРАЖЕНИЕ ЛЮБОВНЫХ ПЕРЕЖИВАНИЙ В СТИХОТВОРЕНИИ ФАРИДУНА МУШИРИ “ПЕРЕУЛОК”

**Ирода Рахмоналиева**

*Магистрантка 1 курса*

*Высшая школа иранистики и афганистики*

*Ташкентский государственный университет востоковедения*

*Ташкент, Узбекистан*

**О. Турдиева**

*Доцент Высшей школы иранистики и афганистики*

*Ташкентского государственного университета востоковедения*

*Доктор филологических наук*

*Ташкент, Узбекистан*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Фаридун Мушири, поэзия, «Переулок», ретроспекция, холистический подход, элементы природы, гиперболическое изображение.

**Аннотация:** В данной статье анализируется известное стихотворение «Переулок» Faridun Mushiri — представителя современной персидской поэзии. В исследовании рассматриваются художественные средства, образы и символические значения стихотворения, а также его языковые и стилистические особенности. Кроме того, анализируются композиция, ритм и интонационные характеристики произведения. Статья кратко раскрывает содержание, сущность и художественную ценность стихотворения с точки зрения литературоведения.

**Kirish.** Faridun Mushiriy zamonaviy fors sheʼriyatining yetuk vakili boʻlib, ijodida insonning ishqiy, ruhiy kechinmalari va tabiat obrazlarini uygʻun ifodalaydi. Mushiriy sheʼrlari oʻzining ravonligi va soddaligi bilan ajralib turadi. Shoir fikrlarini ochiq, tushunarli tarzda ifodalaydi, uslubi esa sunʼiy murakkablik, bezaklardan xoli. Aynan tabiiy va samimiy yondashuv sabab uning sheʼrlari keng omma tomonidan qadrlanadi. Oddiy, ravon boʻlishiga qaramay, Mushiriy sheʼriy tili nafislik va badiiy goʻzallikni his ettiradi. Eronning mashhur shoiri, fors adabiyoti professori Muhammad Rizo Shafeʼiy Kadkanliy ham Mushiriy ijodini chuqur tahlil qilgan olimlardan biridir. U Mushiriyning

she'riy muvaffaqiyatini quyidagicha izohlaydi: "Mushiriy she'riy tilining siri uning soddaligida, muloyimligida va ravonligidadir. Uning tili Sa'diy tiliga yaqin, shu sababli o'quvchilar uchun juda yoqimli."

Shoir ijodida an'anaviy klassik shakllar bilan bir qatorda Nimo Yushij uslubidagi erkin she'rlar ham uchraydi. Uning asarlari orasida ruboiy, qit'a va g'azallar bilan birga zamonaviy erkin she'rlar ham mavjud. "Ko'cha" she'ri shoirning mashhur she'rlaridan biridir. She'r sevgi, sog'inch va xotira mavzularini markaziy o'ringa qo'yadi. Badiiy vositalar va ramzlar orqali insonning ichki dunyosi bilan tabiat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beradi. Shoir ismi tilga olinsa, bevosita uning "Ko'cha" she'ri eslanadi.

Ushbu she'rda birgina ko'cha orqali sevgi, xotira, ayriliq va ichki iztirobning murakkab poetik manzarasi yaratilgan.

...بی تو، مهتاب شبی، باز از آن کوچه گذشتم

Sensiz oy nur sochgan bir kechada yana o'sha ko'chadan o'tdim...

She'rning birinchi misrasiyoq lirik qahramonning holatini, kayfiyatini to'laligicha ifodalaydi. "Sensiz" so'zi kechinmalar ifodasining asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu yerda ishq hozir mavjud bo'lmagan, balki xotiralar orqali jonlanadigan holat sifatida namoyon bo'ladi. Adabiyotshunoslikda bu retrospeksiya deb ataladi: sevgi bevosita yashalmaydi, balki xotira orqali qayta jonlanadi. Mushiriy ishqni ruhiy holat sifatida tasvirlaydi. Ko'cha xotirani uyg'otuvchi makon, ishq esa shu xotiraning bo'lagi sifatida talqin qilinadi. She'rda ishqiy kechinmalar bosqichma-bosqich chuqurlashib boradi.

، همه تن چشم شدم، خیره به دنبال تو گذشتم

،شوق دیدار تو لبریز شد از جام وجودم

...شدم آن عاشق دیوانه که بودم

Butun vujudim ko'zga aylandi, hayrat bilan seni izladim,

Seni ko'rish ishtiyoqi vujud kosamni to'ldirib yubordi,

Men (yana) o'sha telba oshiqqa aylandim...

Bu misralarda lirik qahramonning ichki dunyosi ochib berilgan. "Butun vujudim ko'zga aylandi" iborasi oshiqning bor kuchi bilan sevgilisini izlayotganini bildiradi. Shu jumla bilan psixologik tasvir aniq chizgilarda namoyon bo'ladi: insonning hissiy va jismoniy holati sevganini topish maqsadida birlashadi. Ko'rish ishtiyoqi vujud kosasini to'ldirishi esa muhabbat istagining kuchliligi, bunda jism va ruh birlikda harakat qilishi ifodalanadi. Bunga holistik yondashuv deb ataladi, ya'ni oshiqning hissiyotlari faqat qalbida emas, balki butun mavjudligida aks etadi. Keyingi misrada esa telbalik holati, ishqning insonni mantiqdan uzib, mutlaq hissiyotga yetaklashi haqida so'z boradi:

،در نهانخانه جانم، گل یاد تو، درخشید

باغ صد خاطرہ خندید،  
 عطر صد خاطرہ بیچید:  
 یادم آمد کہ شبی با ہم از آن کوچہ گذشتیم،  
 پر گشودیم و در آن خلوت دل خواستہ گشتیم،  
 ساعتی بر لب آن جوی نشستیم

Jonimning pinhon xonasida sening xotirang guli porladi,  
 Yuzlab xotiralar bog‘i kuldi,  
 Yuzlab xotiralar ifori taraldi.  
 Yodimga tushdi, bir kecha ikkimiz o‘sha ko‘chadan o‘tgandik,  
 Qanot yozdik, xilvatda sayr qildik,  
 Bir oz vaqt o‘sha ariq bo‘yida o‘tirdik.

Bu misralarda xotira va makon ishqiy kechinmalarning markaziy vositasi sifatida ishlatilgan. Satrlar oshiqning ichki dunyosida ma‘shuqaning xotirasi qanday yorqin va jonli ekanini ko‘rsatadi. Xotiralar bog‘i, xotiralar ifori esa ishqning ko‘p qatlamli xotira va hissiy tafsilotlarini ifodalaydi. Bu yerda bog‘ va ifor ramz sifatida ishlatilib, har bir xotira alohida ruhiy holat haqida so‘zlaydi. Oshiqlar orom topgan joy ariq labi esa sokin kayfiyatni tasvirlash bilan birgalikda ishqning vaqt va makon bilan uyg‘unlashgan holatini ham bildiradi.

تو، همه راز جهان ریخته در چشم سیاهت  
 من همه محو تماشای نگاهت

Sen - butun olam sirlarini qora ko‘zlaringga jamlagan eding,  
 Men esa butkul sening nigohingni tomosha qilishga mahliyo edim.

Mushiriy ishqni nigoh orqali idrok etishni ilgari suradi va oshiq-ma‘shuq munosabatini nihoyatda nozik poetik vositalar bilan ochib beradi. Butun olam sirlarini qora ko‘zlariga jamlash giperbolik tasvir bo‘lib, sevgilisining nigohi cheksiz ma‘no va sir manbai sifatida talqin qilinadi. Oshiq uchun ma‘shuqa nafaqat sevgi manbayi, balki borliqning mazmunini mujassamlashtirgan timsoldir. Qora ko‘z esa sharq she‘riyatida chuqurlik, sirli kuch va sehr ramzi hisoblanadi. Keyingi misrada esa tomosha qilishga mahliyo bo‘lish ishqning faol harakat emas, balki ruhiy taslim bo‘lish shakliga aylanganini ko‘rsatadi. Oshiq ko‘rishga intilmaydi, tushunishga urinmaydi, u faqat nigohga asir.

آسمان صاف و شب آرام،  
 بخت خندان و زمان رام،  
 خوشه ماه فرو ریخته در آب،  
 شاخه‌ها دست برآورده به مهتاب،  
 شب و صحرا و گل و سنگ

همه دل داده به آواز شباهنگ

Osmon tiniq, tun sokin,

Baxt kulib turgan, zamon taslim bo‘lgan,

Oy shodasining suvga to‘kilgandek aksi,

Shoxlar oy nuriga qo‘l cho‘zgandek,

Tun ham, sahro ham, gul ham, tosh ham,

Hammasi tun ohangining qo‘shig‘iga ko‘ngil bergandek edi.

Mushiriy bu misralarda tun va tabiat elementlarini ishqiy ruhiyatni aks ettiruvchi vosita sifatida ishlatadi. Tabiat sokinligi va baxt holati oshiqning ichki tinchligi va orzu-havaslari bilan uyg‘unlashadi. Oy va shoxlar ishqiy nigohning ko‘zgusi sifatida ishlatiladi. Bu yerda oy aks etgan suv va shoxlarning oyga cho‘zilishi ishqiy intilishni kuchaytiradi. Hammasi tun ohangining qo‘shig‘iga ko‘ngil bergani esa ishqiy qamrov butun makon bilan uyg‘unlashganligini ko‘rsatadi. Har bir tabiiy element tun muhitiga hamroh bo‘lib, lirikaning ko‘p qatlamli estetikasini hosil qiladi:

یادم آید، تو به من گفتی

!از این عشق حذر کن

،لحظه‌ای چند بر این آب نظر کن

،عشق گذران است آب، آیین

،تو که امروز نگاهت به نگاهی نگران است

!باش فردا، که دلت با دگران است

!تا فراموش کنی، چندی از این شهر سفر کن

!با تو گفتم: حذر از عشق!؟ ندانم

،سفر از پیش تو؟ هرگز نتوانم

!نتوانم

،روز اول، که دل من به تمنای تو پر زد

چون کیوتر، لب بام تو نشستم

،تو به من سنگ زدی، من نه رمیدم، نه گسستم

باز گفتم که: تو صیادی و من آهوی دشتم

تا به دام تو در افتم همه جا گشتم و گشتم

!حذر از عشق ندانم، نتوانم

Yodimda, sen menga aytganding:

“Bu ishqdan ehtiyot bo‘l!

Bir lahza shu suvga qaragin,

Suv — o‘tkinchi ishqning oynasidir,

Bugun nigohing bir nigohga tashvishli bog‘langan bo‘lsa,

Ertaga yuraging boshqalar bilan bo‘ladi!

Unutish uchun, bir muddat bu shahardan ket!”  
 Men senga dedimki: “Ishqdan ehtiyot bo‘lishni bilmayman!  
 Sening oldingdan ketish? Hech qachon qila olmayman,  
 Ilk kun, yuragim sening orzuving bilan qanot qoqqanda,  
 Kabutar kabi toming labiga qo‘ndim,  
 Sen menga tosh otding, men cho‘chimadim, ketmadim,  
 Yana dedim, sen ovchisan, men sahro ohusiman,  
 Sening tuzog‘ingga tushish uchun hamma joyda kezdin,  
 Ishqdan ehtiyot bo‘lishni bilmayman!

She’rning bu qismi oshiq va ma’shuq o‘rtasidagi ziddiyatni, shuningdek, sevgidagi qaror va taslimlikning psixologik dinamikasini ochib beradi. Ma’shuqa aqlga ko‘ra, oshiq esa his-tuyg‘u va ichki ishtiyoqqa ko‘ra harakat qiladi, bu esa ishqiy lirikaning kuchini oshiradi.

اشكى از شاخه فرو ريخت  
 مرغ شب، ناله ی تلخی زد و بگریخت  
 ،اشک در چشم تو لرزید  
 !ماه بر عشق تو خندید  
 یادم آید که :دگر از تو جوابی نشنیدم  
 .پای در دامن اندوه کشیدم  
 .نگسستم، نرمیدم  
 ،رفت در ظلمت غم، آن شب و شب‌های دگر هم  
 ،نه گرفتی دگر از عاشق آزردہ خبر هم  
 نه کنی دیگر از آن کوچه گذر هم  
 !بی تو، اما، به چه حالی من از آن کوچه گذشتم

Shoxdan bir tomchi yosh tomchi,  
 Tun qushi achchiq nola qilib uchib ketdi,  
 Ko‘zingda yosh titradi,  
 Oy sening ishqingga kuldi!  
 Yodimda, sendan javob eshitmadim,  
 G‘amga cho‘mdim.  
 Ketmadim, qochmadim.  
 O‘sha tun ham, undan keyingi tunlar ham zulmat qa’riga ketdi,  
 Ranjigan oshiqdan hol so‘ramading,  
 O‘sha ko‘chadan ham boshqa o‘tmading,  
 Sensiz men o‘sha ko‘chadan qanday ahvolda o‘tdim!

Ishqiy kechinmalar fojeaviy, og‘ir ruhiy holat orqali tasvirlanadi. Mushiriy oshiqning ichki iztirobini tabiat timsollari orqali yetkazadi: tomchi yosh, tun qushi nolasi, oying tabassumi - bularning barchasi ishqdagi azob va yolg‘izlikni ramziy tarzda aks ettiradi. Shoir ishqni nafaqat hissiy, balki ruhiy iztirob bilan bog‘laydi va she‘rning umumiy psixologik ta‘sirini oshiradi.

Faridun Mushiriyning “Ko‘cha” she‘ri shoirning ishqiy lirikasida alohida e‘tirof etiladi. She‘rda ishqiy kechinmalar psixologik, hissiy va ramziy qatlamlar orqali mukammal tasvirlangan. Lirik qahramonning ichki iztiroblari xotira, nigoh, makon va tabiat unsurlari yordamida ifodalangan, ularning har biri ishqiy kechinmalarni yanada jonli va chuqur aks ettiradi. Shoirning mahorati shundaki, u ishqni inson ruhiyatining murakkab va ziddiyatli jarayoni sifatida namoyon qiladi. Ma‘shuqa va oshiq o‘rtasidagi qarama-qarshilik, tabiat va makon ramzlari orqali tasvir qamrovi Mushiriy lirikasining badiiy jihatdan salmoqli ekanini ko‘rsatadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. مشیری، فریدون. - تهران: ناشر اصلی، ۱۹۶۲۱.
2. <https://uz.wikipedia>.
3. Xushmanova G.I. Retrospektiv syujet va kompozitsion yaxlitlik // “Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya” nomli ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – 2024. – B. 87.
4. To‘rayeva B.B. Zamonaviy romanlarda retrospeksiya usulining qiyosiy-tipologik tadqiqi. – 2022. – B. 88.
5. Xalliyeva G. Adabiyotshunoslik. – Toshkent, 2017. – B. 14